

TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL
ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamasiddiqov Akramjon Muxtor o'g'li

Namangan shahridagi 37-umumiyl o'rta ta'lism maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13363057>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lism muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va uning o'ziga xos xususiyatlari atroficha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, ta'lism muassasasi, shaxs, madaniyat, ijtimoiy pedagogika, ta'lism-tarbiya, qadriyat.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ORGANIZATION OF SPIRITUAL
AND EDUCATIONAL WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. In this article, the organization of spiritual and educational work in educational institutions in the Republic of Uzbekistan and its specific features are analyzed in detail.

Key words: spirituality, enlightenment, educational institution, person, culture, social pedagogy, education, value.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ
РАБОТЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье подробно анализируются организация духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях Республики Узбекистан и ее особенности.

Ключевые слова: духовность, просвещение, образовательное учреждение, личность, культура, социальная педагогика, образование, ценности.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intelektual salohiyatli barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan. Milliy mafkura g'oyasini xayotga tadbiq etishga qaratilgan ma'naviy-ahloqiy tarbiyaviy ishlar barkamol shaxsni shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Zamonaviy ta'lism muassasasi yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yemoqda, bunda har bir shaxsning tabiy qobilyatlarini rivojlantirish, bo'lajak avlodni ijtimoiy muhofaza ya'ni ruhiy kamolotini yuksaltiruvchi muhitni yaratish, buning uchun sog'lom muhit va tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish muhimdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkil qilishni asosiy tarkibiy qismlari:

- maqsadni aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qtuvchi, ota ona va jamoa hamkorlikda boshqaruvini ta'minlash muhimdir;

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga nisbatan zamonaviy talablar:

• Har bir tarbiyaviy ish jarayonini maqsadini aniqligi va uni tashxis etish mumkinligi;

• Dasturdagi mavzularga oid nazariy va amaliy masalalar, yechimidagi usullari;

• Mavzudagi matnlarni ketma ketligi, zamonaviyligi, bosqichma bosqich bayon etilishi;

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishni bosh mezoni barkamol avlodni ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratishdir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida -"Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak" Shu sababli har bir tarbiyaviy ishlar mazmuni "Ma'naviy meros, madaniy boylik va ko'xna tarixiy yodgorliklar" eng muhim omillardan biri bo'lib hizmat qiladi" -deb yozadi.

Yoshlarni ma'naviyat ruhida tarbiyalash, unga xos fazilatlarni shakllantirish: o'z o'zidan paydo bo'lmaydi. U insonni ona suti, ota ona namunasi, avlodlarimizning ahloq odobiga doir o'gitlari, tarbiyasi orqali amalga oshiriladi.

Shu sababli mustaqil O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda uch manbadan foydalanish mumkin. Bu Islom Karimovning "Istiqlol va ma'naviyat" asarida quyidagicha ko'rsatilgan:

1. Umuminsoniy qadriyatlar.
2. Islom ta'llimoti.
3. O'zbek milliy urf odatlari

Yuqorida omillar bir biri bilan bog'langan bo'lib, u A Avloniy aytganidek: "Agar inson yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson chiqar" Shu sababdan, A. Avloniy tarbiyaning inson hayotida zarurligini nazarda tutib "tarbiya yo hayot yo momot" dur deb ta'kidlagan edi.

Insonning ma'naviy barkamollik xalollik, birovlarning xaqiga hiyonat qilmaslik , sabr qanoatli, mehr shavqatli kabi fazilatlar bezaydi.

Ahmad Yassaviy nafsni tiyish, poklik bo'lmasa "Haq yo'liga" kirib bo'lmasligini. To'g'ri ko'rsatib insonni ma'naviy ahloqiy tarbiyasiga e'tiborni qaratdi.

Ma'naviyat iborasi keng tushuncha bo'lib u jamiyatshunos, axloqshunos, huquqshunoslik, san'atshunos olimlarning diqqat e'tborini o'ziga qaratmoqda.

Shu jihatdan “Ma'naviyat” tushunchasi turlichayta ta'riflanadi:

“Ma'naviyat - insonning botiniy va zohiriy”, “Ma'naviyat -inson qalbining nuri”, “Ma'naviyat -odamning ruhiy va aqliy olamning majmuasi”ni mujassamlashtiruvchi tushuncha deb ta'riflanadi. (Mirahmad Abdullaev)

Ma'naviyat- insonni asosiy fazilatlaridan biri bo'lib o'z o'zidan paydo bo'lmaydi, u tarbiyaning mahsulidir.

Komil inson tarbiyasi qonuniy tadrijiy rivojlanish xususiyatiga ega. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish metodikasi fani ijtimoiy tarixiy xarakterga ega bo'lganligi sababli o'ziga xos dialektik rivojlanish qonuniyatlar mavjud.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda munosabatlardagi qarama qarshiliklar, tarbiyaviy ta'sirchanlikni bir yoqlamaligi , xulq atvordagi qarama qarshiliklar, natijasida inson shakllanib rivojlanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarini ijodiy faoliyatni tashkil qilishga bog'liq.

Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi.

- Ma'naviy-ma'rifiy jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarining kundalik hayotiy voqyealar jamoadagi tartib qoida va hulq atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondashuvini tarbiyaviy munosabatlar deyiladi.
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish.
- Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarining ruhiy holatlari, munosabat va muloqatda bo'lishlari, ijobiy ruhiy shart sharoit yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiena qoidalariiga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy tadbirlarni muvoffaqiyatli tashkil etish omillaridan biridir.
- Tarbiyalanuvchilarining faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarini faolligi ko'p jihatdan intiyorilik, fidoiylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq. Har bir tadbirni bola ko'rsin, unda intilish hissi uyg'onsin, unda o'zini shaxsiy munosabatlarini bildirish imkonini vujudga kelsin.

- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim jarayonida olgan bilmlariga uyg'un bo'lishi . Tadbirlarni rejalahtirishda tasodif holat bo'lmadan, turli fanlarni integratsiyasidan kelib chiqadigan mavzular ijobiy xarakter kasb etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy jarayon ongli, ma'suliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tamonlama ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish metodikasi fanining predmeti, bo'lajak tarbiyachi o'qituvchilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san'atining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, malaka hosil qilish haqida babs yuritadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi bo'lajak o'qituvchi tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanish tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan man'balarni ajrata bilish

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning vazifalari:

- bolalar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi:
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora tadbirlarni ko'ra bilishi:
- ilg'or tajribalarni kuzatib taxlil qilib undan ijodiy foydalanishi:
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishni takomillashtirish:
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tadrijiy ravishda rivojlantirish lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligi uchun xizmat qiluvchi milliy man'balar;

Turkistonda milliy uyg'onishning vujudga kelishi qonuniy zaruriyat bo'lib, uning zaminida xalqlardagi mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishi istagi yotar edi. Xalqdagi bunday istakning paydo bo'lishida, o'tmishdagi quyidagi nazariy ta'limotlar jiddiy ta'sir ko'rsatdi:

1.O'zbek xalqning mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishi natijasida o'lkadagi milliy, diniy g'oyalarning keng ro'yobga chiqishi:

2.Ma'rifatparvarlik yoki jamiyatni yangilashga intilish jadidchilik (arabcha "yangi" degan ma'noni anglatadi) harakati:

3.Ona tilimiz, uning sofliji va xorijiy so'zlar iboralaridan ozod qilish uchun kurash:

Ma'lumki, milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Rus pedagogi K. D. Ushinskiy o'zining "Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqidagi" asarida "Hamma uchun umumiyl bo'lgan birgini tug'ma odat borki, hamisha tarbiya shunga tayanishi mumkin u ham bo'lsa, xalqning o'zi yaratgan va xalqchilik asosida qurilgan xalqning tarbiyachilik san'atiga boy

merosidan foydalanish ijobiy ahamiyat kasb etadi” deb yozadi. Bu o’z navbatida milliy tarbiyada ijobiy samara beradi.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to‘g‘risida»gi qarori// Xalq so’zi 2017 yil 29 iyul
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.- Toshkent: Ma’naviyat, 2008 –B. 29.
3. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. -Toshkent: Akademiya, 2007.
4. Munavvarov A. Oila pedagogikasi.- Toshkent: O‘qituvchi, 1994
5. Inatullayev B. B. Таълим самарадорлигига фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси./Журнал социальных исследований. 2020 yil 1-son.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dPRv-zEAAAAJ&citation_for_view=dPRv-zEAAAAJ:2osOgNQ5qMEC